


**XITOIY BUDDAVIYILIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH
MUAMMOLARINING QO'YILISHI**

 10.24412/2181-1784-2021-1-572-579

Sulaymonov J.B.

TDSHU “Sharq falsafasi va madaniyati”
kafedrası katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola Xitoy buddaviyiligining Tyantay maktabi ta'limotining ontologik va gnoseologik masalalariga bag'ishlangan. Maqolada Tyantay maktabi ta'limotida I nyan san syan doktrinasi va yagona Aql ta'limoti buddaviylikning kosmologik qarashlariga uzviy bog'liqligi ta'kidlangan.*

***Tayanch so'zlar:** Xitoy Buddaviyiligi, Tyantay, I nyan san syan doktrinasi, ontologiya, gnoseologiya, „beshta davr, sakkiz ta'limot“, „o'rta yo'l haqiqati“.*

***Abstract:** This scientific article is devoted to ontological and epistemological issues of the Tiantai School of Chinese Buddhism. The article emphasizes that the doctrine of the teachings of Iyang San-Qian and the doctrine of the unity of reason in the doctrine of the Tiantai school are inextricably linked with the cosmological views of Buddhism.*

***Keywords:** Chinese Buddhism, Tiantai, Iyang San-Qian doctrine, ontology, epistemology, “Five eras, eight teachings”, “Mid-level truth”.*

Milodiy 56 yilda xan sulolasidan bo‘lgan imperator Min-dining tushiga oltin rang nur taratayotgan bir avliyo kiribdi. Tongda imperator o‘zining donishmand amaldorlarini yig‘ib, ulardan bu avliyoning kimligini izohlashni so‘rabdi. Hamma tushning ta‘birini bilmay turgan vaqtda, bir donishmand shunday debdi: “kamina qulingiz G‘arbda ilohiy zot (shen) borligini eshitganman, uning ismi Buddha ekan. Aynan shu ilohiy zot tushingizga kirgan”. Shunda imperator G‘arbiy O‘lkalarga (si yuy – Markaziy Osiyo) elchilikni jo‘natibdi, elchilki bir qancha vaqtdan keyin oq otda buddaviylik matnlari va muqaddas tavirlarini olib kelibdi. Ushbu otni escha ikki rohib Dxarmaratna va Kashyapamatanga kuzatib kelgan ekan. Imperiya poytaxti – Loyan shahrida rohiblarga hurmat ko‘rsatilibdi va tez orada bu yerda birinchi buddaviylik monastiri – Oq Ot monastiri qad ko‘taribdi [1. 38].

Albatta, yuqorida qayd qilingan hodisa afsona, uni aynan qabul qilmaslik kerak. Xitoyda ilk monastirlar (shu jumladan Loyanda ham) bir oz keyinroq – milodiy III asrdan avvalroq paydo bo‘lganiga hech qanday shubha yo‘q. Lekin ushbu

afsona Xitoyga buddaviylikning kirib kelish vaqtini – milodiy I asrni to‘g‘ri ko‘rsatgan. Bundan tashqari maxalliy Chu podshohi In (Lyu In)ning maktubi matni saqlanib qolgan, ushbu maktub milodiy 65 yil yozilgan. Unda podshoh In buddaviylikning uch atamasi keltirilgan – upasaka (buddaviylik qavmi a‘zosi), Buddha va shramana. Afsonada aks etgan yana bir muhim tarixiy hodisa – buddaviylikning Xitoyga Markaziy Osiyodan kirib kelishi hisoblanadi[1. 41].

Xitoyga buddaviylikning kirib kelishi va Xitoy buddaviylik an‘analarining shakllanishi Xitoy tarixida madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning yaqqol misoli bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xitoy va hind madaniyatining o‘ziga xos sintezi mahsuli bo‘lgan Xitoy buddaviylikning bu mamlakatdan Uzoq Sharqning barcha mamlakatlariga (Koreya, Yaponiya, Vetnam) tarqalishi diqqatga sazovordir[2. 96]. Xitoy buddaviylik bu mamlakatlarga o‘z yozuv tizimidan tashqari buddaviylikka xos bo‘lmagan xitoy madaniyatining yo‘nalishlari va xususiyatlarini ham olib kirdi. Shu tahlilga buddaviylikning “to‘rt dengiz” osha tarqalishi Uzoq Sharq tarixiy-madaniy mintaqasining shakllanishiga va o‘ziga xos tamaduniy jarayonning kechishiga hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘sir ko‘rsatdi. Xitoy, aynan, buddaviylikni targ‘ib qilish chog‘ida ilk marta asosiy xususiyatlar va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan “begona” dunyoqarash bilan to‘qnashdi. Buddaviylik uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab jarayon, ya‘ni Xitoyga madaniy jihatdan moslashuv natijasida ushbu jamiyatga abadiy singib ketdi va xitoycha dunyoqarashning ko‘plab muhim yo‘nalishlarini o‘zgartirdi. Buddaviylik tarkiban mutlaqo yangi madaniy jihatni Xitoyga olib kirdi, xitoy madaniyati bu jihatni ming yillar mobaynida o‘zlashtirdi, moslashtirdi va natijada ushbu madaniy sintezning hosilasi sifatida neokonfusiylilik, yangi konfusiylilik tizimi shakllandi. Buddaviylikning o‘zi esa bu jarayonda katta o‘zgarishlarga uchradi va maxayana an‘analari doirasidagi buddaviylik konfessiyasiga aylandi. Shuning uchun ham buddaviylik an‘analarining Xitoyda qaror topishi jarayoni asosli ravishda “Buddaviylikning xitoylashuvi”(chjungoxua) deb nomlandi. Buddaviylik hind madaniy an‘analarining bir butunlikdagi yagona vakili sifatida buddaviylikning paydo bo‘lishidan avval ham ikki ming yillik tarixga ega bo‘lgan Xitoy tamadunining mahobatiga teng kela olmasdi. Shuning uchun Buddaviylik o‘zi ta‘sir qilayotgan Xitoy madaniyatidan ko‘ra ko‘proq o‘zgarishlarga uchradi.

Tyantay maktabi – Xitoyda shakllangan dastlabki buddaviylik maktablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maktabning asoschisi rohib Chji-i (538-597 yillar) hisoblanadi, vaholanki, ushbu maktab ta‘limotining asoslari uning ustozlari – Xuey-ven va Xuey-si tomonidan yaratilgan. Maktabning nomi Sharqiy Xitoydagi

(Chjeszyan muzofoti) Tyantayshan tog‘lari nomidan olingan. Rohib Chji-i bu yerda uzoq vaqt davomida yashagan va faoliyat olib borgan. Maktabning asosiy aqidaviy matni “Nilufar sutrasi” (xitoycha, “Fa xua szin”) bo‘lganligi uchun aksariyat hollarda maktabni – Nilufar sutrasi maktabi (Faxua szun) ham deb nomlashadi.

Tyantay maktabining ushbu Nilufar sutrani afzal ko‘rganligining sababi ushbu sutraning ta‘limotlari tasnifi doktrinasi (pan szyao) boshqa maktablar ta‘limotlaridan ustun bo‘lgan. Bu doktrina “Beshta davr, sakkiz ta‘limot” (u shi ba szyao) deb nomlangan.

Ushbu ta‘limotga muvofiq Budda Shakyamuni nurlanishdan so‘ng besh davr mobaynida “dengiz aksi” holatida (xay in sanmey), yuqori darajadagi diqqat va e‘tiborni jamlagan holda faoliyat yuritgan ekan. Bu holatda Buddaning ongi sokin holatdagi dengiz sathi singari bo‘lib, barcha narsa-buyumlarni o‘zida aks ettirgan, Budda esa butun dunyoni cheksiz Aqlning mutloq birligi sifatida ko‘rgan. Budda o‘z hissiyotining natijasini “Avatamsaka sutra”da ifodalagan va ilohiy zotlar va bodxisattvalarga bayon qilgan, hatto ular uchun ham bu ta‘limot murakab va tushunarsiz bo‘lgan[3. 138]. Shunda Budda o‘z shogirdlarining haqiqatni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga tayyorlashga qaror qildi va ularga Banorasda (Varanasi) Bug‘ular o‘rmonida To‘rt oliyjanob haqiqat va sabab-oqibat kelib chiqishi (Xinayana) haqidagi ta‘limotni o‘rgatdi. Ular tomonidan ushbu ta‘limot o‘zlashtirilgandan so‘ng Budda ongning maxayana nazariyasini (yogachara), undan so‘ng esa dxarmalarning mohiyatsizligi va bo‘shliqqa egaligi (madxyamaku) haqidagi maxayana ta‘limotini o‘rgatdi. Shundan so‘ng shogirdlar oliy haqiqatni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lganliklari ma‘lum bo‘ldi. Budda ularga o‘z o‘gitlarining yakuni bo‘lgan “Nilufar sutrasi”ni o‘rgatdi. Budda o‘z vafoti va nirvanaga ketishi oldidan “Maxaparinirvana sutrasi”ni ham o‘rgatdi. “Maxaparinirvana sutrasi” Tyantay maktabida “Nilufar sutrasi”ning oliy haqiqat ekanligini tasdiqlovchi sutra sifatida tan olinadi.

“Nilufar sutrasi”ning tarkibi “Avatamsaka sutra”dagi oliy haqiqatga aynan o‘xshashligi, shaklan esa “Nilufar sutrasi” undan yuqoriroq ekanligi ta‘kidlanadi: “Avatamsaka sutra”ni aqliy salohiyati eng yuqori insonlar tushunishida ham katta qiyinchiliklar uyg‘otadi, “Nilufar sutrasi” esa quyi darajadagi ilmi insonlar uchun ham tushunarli bo‘lib, hatto omi insonlarning ham talabini qondiradi. Bu holatdan “Nilufar sutrasi” ta‘limotini yakuniga yetgan, mukammal, keng qamrovli, “doirali” (yuan) ta‘limot sifatida xulosa qilish mumkin[4. 87].

Odatda Tyantay maktabi ta‘limotini Nagarjunaning madxyamakasiga asoslanadi, deb baholashadi. Haqiqatda esa ushbu maktab ta‘limoti mumtoz

madxyamakadan ancha uzoq bo‘lib, o‘zida Tatxagatagarbxi nazariyasining variantini ifoda etdi. Tyantay maktabi ikki eng muhim g‘oyasiga tayanadi: “ongning bir harakatida – uch ming dunyo” (i nyan san syan) doktrinasi va “yagona aql” (i sin; ekachitta) konsepsiyasiga. Maktab ta’limotining ruhiy amaliyot tomoni “intiho topish va mushohada qilish” formulasida aks etadi, bu formula ilk Buddaviylik amaliyotiga – shamatxa-vipashyanaga (xotirjamlik va tahliliy mushohada) borib taqaladi, lekin Tyantay maktabi doirasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan[4. 89].

I nyan san syan doktrinasi va yagona Aql ta’limoti buddaviylikning kosmologik qarashlariga uzviy bog‘liq. Bu qarashlar avvalo o‘zida tirik mavjudotlarning har biri va uning joylashgan makoniga ong va unga muvofiq keladigan dunyoning kengaytirilgan alohida ikkiyoqlamaligi sifatida yondashuvchi dunyoqarashni o‘zida ifoda etadi.

Tyantay maktabi an‘analarida yuqorida qayd qilingan tirik mavjudotlar(shi)/dunyolar turining soni o‘ndan oshadi. Bular sansaraviy mavjudotlarning olti dunyosi: ilohiy zotlar, titan-asurlar, insonlar (oddiy insonlar, omi insonlar nazarda tutilmoqda – pritxagjana, su jen), hayvonlar, och ruhlar, do‘zaxlar dunyolari kiradi. Sansara dunyolariga yana “oliyjanob shaxslar”ning to‘rt dunyosi kiradi: (arya pudgala; syan): shravaklar, prateka-buddalar, bodxisattvalar va Buddaning dunyolari kiradi.

Yuqorida qayd qilingan dunyolarning har biri istalgan boshqasida hozir bo‘ladi, ya’ni dunyolar bir-biriga o‘tadi, kiradi, masalan, do‘zax dunyolari Buddaning dunyosida hozir bo‘ladi (mana shu nazariyadan Tyantay buddaviyligining g‘oyat original gnostik g‘oyasi shakllangan, ya’ni Buddaning tabiatida nafaqat ezgulikni, balki yovuzlikni ham uchratish mumkin), Budda dunyosi esa do‘zax dunyolarida namoyon bo‘ladi, o‘n dunyoni o‘nga ko‘paytirsak, yuzta dunyoning miqdori kelib chiqadi. Har bir dunyo yana uch xil munosabatda ko‘rib chiqiladi, ulardan har biri esa alohida dunyo statusini oladi (shi szyan): 1) mavjudotlar dunyosi (har bir dunyoni yashayotgan mavjudotlar yo‘nalishida ko‘rib chiqish), 2) besh skandx dunyosi (har bir dunyoni psixologik yo‘nalishida mavjudotlar ongini rivojlantirish darajasi sifatida ko‘rish), 3) dunyo-mamlakat (har bir dunyoni tirik mavjudotlar saqlanadigan makon sifatida ko‘rish).

O‘nta dunyoni uch soniga ko‘paytirsak, o‘ttizta dunyo bo‘ladi. Ixtiyorimizda bo‘lgan yuzta dunyoni o‘ttizga ko‘paytirsak, uch ming soni kelib chiqadi. Mana shu holatda Tyantay maktabi ta’limotini hind va xitoy an‘analarining o‘zaro ta’siri, ya’ni hind falsafasining ruhiyatshunosligi va xitoy kombinatorikasi va numerologiyasining o‘zaro bir-biriga ta’siri natijasi sifatida baholash lozim. Numerologiya matemati va

kvazimatematik ob'ektlar bilan mafkuraviy muhim ahamiyatga ega bo'lgan operatsiyalar vositasida xitoy an'anaviy falsafasida muhim rol o'ynagan.

Uch ming dunyoning barchasinafaqat ob'ektiv va tirik mavjudotlarning ongining tarkibi sifatida mavjud, balki ularning o'zaro teng holatda mutloq Yagona Aqlga (i sin), Buddaning Aqliga tayanadi. Bu Aqlning har bir harakati dunyolarni butun holda va to'liq yaratadi. Yagona Aql nazariyasi Abadiy Budda tyantay doktrinasi bilan uzviy bog'liqdir.

“Nilufar sutrasi”da Budda shunday deydi: “faqat axmoqlargina meni Bodxi darahning tagida nurlangan Siddxartxa Gautama bilan aynanlashtiradilar”. Budda abadiy nurlanga, u hech qachon tug'ilmagan va hech qachon vafot etmaydi. Tyantay maktabining asoschilari yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib, Buddaning haqiqiy mohiyat, butun olam kabi real voqelik ekanligini, har bir mavjudot alohida ibtidodan buyon Buddaning nurlangan tabiatidan bahramand bo'lganligini ta'kidlaydilar. Tyantay maktabining bu g'oyasi xitoy buddaviyligining (nafaqat xitoy buddaviyligining) boshqa barcha maktablardan farq qiladi. Tyantay maktabi Buddaning tabiati nafaqat tirik mavjudotlarni (santana, “ruhiya kontinuumlar”), balki narsa-buyumlarni, “notirik tabiat” (“nokontinuumlar”)ni ham qamrab olganligi haqidagi g'oyani ilgari suradilar, boshqa maktablar esa faqat tirik mavjudotlarga Budda tabiatidan nurlanganligini, notirik tabiat esa ular orqali izohlanadigan tushunchalar sifatida namoyon bo'lishini ilgari suradilar. Tyantay maktabining bu o'ziga xos panteizmi Uzoq Sharqning san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi, xususan, Xitoy va Yaponiyaning she'riyati va tasviriy san'atiga shunday ta'sir ko'rsatdiki, ularda tabiat manzaralari Yagona Mutloqning ko'pshaklli hodisalari sifatida tasvirlandi[5. 59].

Tyantay maktabi ta'limotida panpsixizm va panteizm unsurlari bilan cheklangan xitoy buddaviyligining substansionalizmi to'liq tarzda namoyon bo'ldi.

Tyantay maktabining yana bir yo'nalishi – uning uchyoqli haqiqat nazariyasi (san di) hisoblanadi.

Bu ta'limot shakliy jihatdan Nagarjunaning ikki haqiqat nazariyasiga muvofiq keladi, lekin mohiyatan bu nazariyadan keskin farqlangan holda ularning ba'zi g'oyalariga tayanadi.

Tyantay maktabi ta'limotining birinchi haqiqati quyidagilarni ifodalaydi: har bir hodisa sababiy jihat bilan shartlangan, ushbu hodisa o'z-o'zicha mavjud bo'la olmaydi va mohiyatsiz bo'ladi, faqatgina o'zini shakllanishiga sabab bo'lgan xususiyatlar va shartlar natijasi sifatidagina mohiyatga ega bo'ladi. Bu “bo'shliq haqiqati” (kun di) to'liq ma'noda Nagarjuna ta'limotiga muvofiq keladi.

Tyantay maktabining ikkinchi haqiqati yolgʻon haqidagi haqiqat yoki shartli haqiqat (szya di) sifatida nomlanadi. Unga koʻra barcha hodisalar haqiqiy mohiyatdan mahrumdirlar, ular oʻzgaras va doimiy asosga ega emaslar, shuning uchun ular xayoliy obrazlar va fantaziyalar natijalariga (xuan; xua) oʻxshashdirlar[5. 62].

Uchinchi haqiqat “oʻrta yoʻl haqiqati” (chjun dao di) deb nomlanadi, yaʼni ikki xil nuqtayi nazar oʻrtasidagi yoʻl haqiqatidir. Unga koʻra barcha hodisalar u yoki bu “dxarma tabiati”ga (fa sin) ega boʻlib, ular Abadiy Buddaning abadiy aksi sifatida tugʻilmaydilar va oʻlmaydilar.

Tyantay maktabi taʼlimotida haqiqat deganda uchinchi haqiqatni tan oladilar, chunki qolgan birinchi va ikkinchi haqiqatlar oʻzlarida real voqelikni nomuvofiq va toʻliqsiz bilishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar biz hodisani bir butun dunyoqarashdan tashqarida va hissiy dunyo va Buddaning Yagona Aqlining aynanligini bilmasdan koʻrib chiqadigan boʻlsak, u holda dastlabki ikki cheklangan nuqtayi nazarga kelishimiz muqarrar boʻladi. Yagona Aql nazariyasi oʻzining Buddaning mutloq nurlangan Aqli bilan aynanligini tasdiqlagan holda va buddaviylik dunyoqarashi doirasida oʻziga xos “borliqni oqlash”ni (K.Yu. Soloninning talqini) amalga oshirgan holda, dunyo tushunchasini oʻz real voqeligida tiklaydi.

Uch haqiqat haqidagi taʼlimotda sansara va nirvananing oʻxshashligi haqidagi buddaviylikning maxayana fundamental taʼlimoti va Xitoy falsafiy tafakkurining anʼanaviy naturalistik va kosmologik yoʻnalishlarining nisbiy va mutloq haqiqat haqidagi taʼlimotlarining oʻzaro taʼsirining natijasi yaqqol namoyon boʻladi.

Tyantay maktabining ruhiy amaliyoti “Moxe chji guan” (“Maxa shamatxa vipashyana”) – “Ong va tahliliy mushohadaning bezovtaligini toʻxtatish haqidagi Buyuk traktat” risolasida toʻliq ochib berilgan. Bu matnga koʻra, Tyantay maktabi mushohada qilish usullarini Budda Shakyamunidan yetib kelgan “oltin ogʻzaki nasihat” va Nagarjunadan yetib kelgan “Hozirgi ustozning usullari” kabi ikki yoga usullarning sirli ravishda ogʻzaki yetkazilishi tufayli qoʻlga kiritgan[5. 64].

Chji-ining traktatida ruhiy amaliyotning asoslari Tyantay taʼlimotining barcha qoidalari va ushbu maktabning falsafiy kategoriyalari bilan birgalikda batafsil izohlangan.

Tyantay maktabi Xitoyda IX asrning oʻrtalarigacha rivojlanib, shundan soʻng asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutdi, lekin XI-XII asrlarda qisqa muddatda tiklanish jarayoni ham boʻlib oʻtgan. IX asrning boshlarida yapon rohibi Sayt (767-822) Tyantay (yaponcha Tenday) taʼlimotini Yaponiyada targʻib qila boshladi. IX-XII asrlarda Tyantay taʼlimotini Yaponiyada davlat qoʻllab quvvatladi va bu taʼlimot

keng tarqaldi. XIII asrda Tenday maktabidan rohib Nitiren (1222-1282) maktabi ajralib chiqdi. Nitiren maktabida asosiy urgʻu “Nilufar sutrasi”ni sharaflash va uning nomini takrorlashga (yaponchasiga – “Namo mexo renge ke” – “qimmatli Ustozning “Nilufar sutrasi”ga sajda qilish”) qaratilgan edi. Bu duo Tyantay maktabining shamatxi va vipashyana yoʻnalishlarining murakkab mushohada amaliyotini oʻrnini egallagan. Boshqa sohalarda Nitiren-syu maktabi tenday taʼlimotining qoidalaridan foydalanadi. Ushbu maktab tenday taʼlimotini – Yagona Arava taʼlimotining eng oliy koʻrinishi sifatida baholaydi. Hozirgi vaqtda Nitiren-syu maktabi – Yaponiyadagi eng keng tarqalgan buddaviylik maktablaridan biri hisoblanadi. Tenday maktabi ham ayni vaqtda eng taʼsirli buddaviylik maktablaridan biri boʻlib qoldi. Tenday maktabining tasarrufida koʻp sonli monastirlar, ibodatxonalar, markazlar, xayriya fondlari va universitetlar mavjud.

Tyantay maktabi muayyan darajada Koreya va Vetnamda tarqalgan edi. Lekin vaqt oʻtishi bilan ushbu maktab bu mamlakatlarda oʻz taʼsirini yoʻqotdi.

Tyantay maktabi taʼlimotida ontologik va gnoseologik masalalarni koʻrib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin. Mazkur maktab taʼlimoti ontologiyasida panpsixizm va panteizm unsurlari bilan cheklangan xitoy buddaviyligining substansionalizmi toʻliq tarzda namoyon boʻldi.

Mana shu holatda Tyantay maktabi taʼlimotini hind va xitoy anʼanalarining oʻzaro taʼsiri, yaʼni hind falsafasining ruhiyatshunosligi va xitoy kombinatorikasi va numerologiyasining oʻzaro bir-biriga taʼsiri natijasi sifatida baholash lozim. Numerologiya matemati va kvazimatematik obʼektlar bilan mafkuraviy muhim ahamiyatga ega boʻlgan operatsiyalar vositasida xitoy anʼanaviy falsafasida muhim rol oʻynagan.

Tyantay maktabi taʼlimoti gnoseologiyasiga koʻra uch ming dunyoning barchasi nafaqat obʼektiv va tirik mavjudotlarning ongining tarkibi sifatida mavjud, balki ularning oʻzaro teng holatda mutloq Yagona Aqlga (i sin), Buddaning Aqliga tayanadi. Bu Aqlning har bir harakati dunyolarni butun holda va toʻliq yaratadi. Yagona Aql nazariyasi Abadiy Budda tyantay doktrinasi bilan uzviy bogʻliqdir.

Buddaviylik tarkiban mutlaqo yangi madaniy jihatni Xitoyga olib kirdi, xitoy madaniyati bu jihatni ming yillar mobaynida oʻzlashtirdi, moslashtirdi va natijada ushbu madaniy sintezning hosilasi sifatida neokonfusiylik, yangi konfusiylik tizimi shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 中国佛小时 Chjungo fotszyao shi (Xitoy Buddaviyligi tarixi). T. 1. Pekin, 1982. 38-bet
2. Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. 230 с.
3. 换产花 。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta’limotlarining mohiyati). Taybey, 1973. 138-bet
4. Торчинов Е.А. Введение в буддологию. Курс лекций. — СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2000. 304 с.
5. Чебунин А. В. История проникновения и становления буддизма в Китае: [монография]. — Улан-Удэ: Изд.-полигр. комплекс ФГОУ ВПО ВСГАКИ, 2009. 278 с.